

TERMINLARNING YASALISHIDA FAOL MODELLARNING O'RNI

Pirmatova Dilorom Ulug‘bek qizi

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada terminlarning yasalishi uchun xizmat qiladigan faol modellar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ot-termin, tub termin, affiksial termin, derivativ termin.

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассказывается об активных моделях которые служат для создания терминов .

Ключевые слова: существительное термин корневые термин аффиксальные термин производные термин.

ABSTRACT

This article talks about active models that serve to create terms.

Key words: noun-term,root-term,affixal term, derivative term.

Barchamiz bilamiz, terminlar leksik birliklar singari umumadabiy va maxsus leksikada bor bo‘lgan so‘z va o‘zaklardan yasaladi. Terminlar ham oddiy so‘zlar kabi sodda, qo‘shma, juft hamda hamda takroriy terminlarga bo‘linadi. Leksik birliklar tuzilishiga ko‘ra 4 guruhga ajralib, har birining o‘z funksional vazifalari mavjud. Masalan, sodda leksik birliklarga biz kitob, pul, olam, odam, tish, til, ko‘z kabilarni olishimiz mumkin. Sodda leksik birliklar ham, o‘z navbatida, sodda tub hamda sodda yasamalarga bo‘linadi. Misol uchun, sodda tub - gul, sodda yasama - gulchi. Bundan ko‘rinadiki, terminlarda ham xuddi shunday xususiyatlar mavjud ekan. Ya’ni bu

nimadan dalolat? Terminlar hamda leksik birliklarning birlashtiruvchi xususiyatlarini mujassamlashtirganidandir.

O‘zbek terminologiyasida tub terminlar singari derivativ terminlarning ham roli beqiyosdir. Tub terminlarning muhim xususiyati shundan iboratki, barcha terminologik sistemalar uchun xos. Yasama terminlar esa terminologiyaning katta qismini tashkil qilish bilan birga morfologik, sintaktik, semantik usullar bilan hosil qilinadi.

1) Sodda tub terminlar: ya’ni bunday terminlar bir asosdan tarkib topgan bo‘ladi. Tarkibida so‘z yasovchi model bo‘lmaydi. Misollar bilan izohlasak; til, boy, xalq, yoy, yurt, oy, kun, yil, yov, h.k.

2) Derivativ terminlar: bunday terminlar ham bir asosdan tarkib topgan bo‘lib, tarkibida derivatsion qo‘sishchalarini uchratamiz. Misol uchun, gulchi, paxsachi, kemachi, tamg‘achi, suvchi, h.k.

Biz terminlarning yasalishida morfologik, sintaktik hamda semantik usullar bilan yasalgan terminlarga guvoh bo‘lamiz. Bunday jarayon esa bevosita terminologik leksikaning boyib, rivojlanib borishiga xizmat qiladi.

“O‘zbek tili terminlarining aksariyatini motivlangan, ya’ni so‘z- terminlar (qo‘sishchalar bilan yasalgan), termin - qo‘shma so‘z, termin-birikmalar hamda semantik (asosan metaforik) ko‘chim asosida hosil qilingan terminlar tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda, terminlarning salmoqli qismi motivlanmagan, ya’ni o‘zbek tilining o‘z sodda so‘zlari, o‘zlashmalar, termin – kalkalar va antroponimlardan metonimik ko‘chim vositasida voqelangan”.[1.54]

Barchamizga ma’lumki, terminlar ko‘proq ot so‘z turkumidan ifodalanadi. Bundan tashqari, fe’l, sifat, ravishlardan ham ifodalanishi mumkin. Mening fikrimcha, ot so‘z turkumidan hosil qilingan terminlar terminologik leksikaning asosini tashkil qiladi.

“Affiksial termin yasalishi umumadabiy so‘zlarning hosil qilinishi singari juda qadimdan yetakchi va sermahsul usul hisoblanadi. O‘z vaqtida Mahmud Koshg ‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Ibn Muhanna lug‘atlarida, XIII-XIV asrlarda turkiy til grammatikasiga doir arab tilida yaratilgan risolalarda, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul- lug‘atayn” asarida o‘zbek (turkiy) tili so‘z yasalishi vositalari va yo‘llari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan edi”.[2.54]

Affiksatsiya usuli bilan yasalgan ot turkumli terminlar

1. Ot (sifat) turkumli so‘zlardan yasalgan terminlar.

-chi affiksli so‘z yasovchi model

Bu affiks o‘zbek terminologiyasi tizimida sermahsul qo‘sishimcha sanaladi.

-chi affiksli ot – terminlar semantik strukturasiga ko‘ra bir qancha guruhlarga bo‘linadi.

Biron bir kasb-hunar, mutaxassislik bilan shug‘ullanuvchi subyekt nomini ifodalovchi terminlar: traktorchi, sportchi, kemachi, dengizchi, baliqchi, hisobchi, soliqchi, kabelchi, suvchi, bo‘yoqchi, betonchi;

-chi affiksi kasb- hunar, mutaxassislikning umumiyligi ma’nosini bildiruvchi so‘zlarga qo‘silib, ushbu kasb-hunar va mutaxassisliklarga taalluqli ot – terminlarni yasaydi. Misol uchun, xizmatchi, tilchi, jangchi, chorvachi va h.k.

Bundan tashqari, -lik, -liq, -lash, -lashtirish, -cha, -boz, -goh, -dor, -dosh, -do‘z, -kash, -noma, -parvar, -parast, -soz, furush, xo‘r, -shunos kabi so‘z yasovchi affikslar ot yoki sifat so‘z turkumli so‘zlardan terminlar yasash uchun xizmat qiladi. Misol uchun, matnshunos, asalxo‘r, qasoskor, bayonnomma, kemasoz, miyacha, nishondor va h.k.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, terminlarning hosil qilinishida so‘z yasovchi modellarning o‘rni beqiyos ekan. Aynan shu so‘z yasovchi qo‘sishchalar leksikamiz boyish uchun ham xizmat qiladi.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Dadboyev H.O‘zbek terminologiyasi.Toshkent.2019. 50-64-betlar
- 2.Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari.Toshkent.2017.
3. Gaziyeva Maftuna, Pirmatova Dilorom O‘ZBEK TERMINOLOGIYASINING LEKSIK- GENETIK XUSUSIYATLARI MASALASI . Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnalni 3(5) , 230-236 –betlar , 2023.
4. GaziyevaMaftuna, Pirmatova Dilorom TERMINOLOGIK LUG‘ATLAR HAMDA ULARNING AFZALLIKLARI XUSUSIDA. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnalni 1-5 -betlar